



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, aholi bandligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanishga hissa qo'shadi. Globalashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan xizmatlar innovatsiyalar, samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlik uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xizmatlar sohasi ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga, davlat, biznes va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'sishini rag'batlantiradi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-dekabr)

69,6



**Xizmatlar sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi, % da**

16 741,1




**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi, ming
so'mda**

69,6




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da**




Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1-yanvar holatiga ko'ra)




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(yanvar-dekabr)



Soni, birlikda.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1-yanvar holatiga ko'ra)

65,4



2025- y.


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2021- y.



59,4

Soni, birlikda



Soni, birlikda

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-dekabr)

2024

2 737

2023

3 829

2022

2 955

2021

4 149

2020

3 497

2024- y.

55,1



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi, % da


59,0



2020- y.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hisssasi

(2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ Grafikda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- y.y. yanvar-dekabr oylari uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2023- yil yanvar-dekabr oylari hajmi va 2024- yil yanvar-dekabr oylari uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda shakllantirilgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-dekabr)


Shahar va tumanlar nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati ¹⁾	34 495,1	100,0	111,2
tumanlar:			
Olot	769,9	2,2	111,1
Buxoro	1 204,8	3,5	110,9
Vobkent	1 473,4	4,3	113,4
G'ijduvon	2 808,4	8,1	111,4
Kogon	776,8	2,4	111,2
Qorako'l	1 011,6	2,9	110,0
Qorovulbozor	472,5	1,4	108,2
Peshku	1 251,0	3,6	108,5
Romitan	1 289,0	3,7	110,3
Jondor	1 250,6	3,6	110,7
Shofirkon	1 045,0	3,0	109,5
shaharlar:			
Buxoro sh.	9 212,0	26,7	112,5
Kogon sh.	879,2	2,6	110,1

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr)



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-dekabr)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **69,6** foizni, shu jumladan, **39,5** foizni kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-dekabr)




Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-dekabr)


Xizmat turlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	34 495,1	100,0	111,2
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	990,5	2,9	116,6
Moliyaviy xizmatlar	4 406,1	12,8	105,8
Transport xizmatlari	5 670,0	16,4	109,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	5 174,4	15,0	110,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	10 002,7	29,0	112,1
Savdo xizmatlari	7 639,9	22,2	112,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	492,1	1,4	105,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 657,6	4,8	126,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	564,0	1,6	110,4
Ijara xizmatlari	508,8	1,5	103,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	641,3	1,9	116,7
Shaxsiy xizmatlar	628,7	1,8	109,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	220,3	0,6	106,4
Boshqa xizmatlar	1 073,1	3,1	107,0

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida xizmatlarning umumiy hajmida (yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda) yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **29,0** foizni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **97,0** %.

Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ○ O'sishi, % da

Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdoning ulushi (yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda) umumiy savdo xizmatlarining yarmidan ziyod qismini, ya'ni **63,8 %** ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)



Shahar va tumanlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi, % da
Buxoro shahri	1 501,7	+12,9
G'ijduvon	977,1	+10,0
Vobkent	789,0	+19,3
Peshku	518,1	+10,4
Romitani	435,7	+10,5
Buxoro	385,7	+11,5
Jondor	378,3	+13,1
Buxoro	375,5	+11,3
Kogon	359,7	+8,1
Shofirkon	352,1	+7,9
Qorako'l	279,4	+14,3
Olot	245,3	+8,8
Kogon shahri	205,4	+14,7

¹⁾ shahar va tumanlar bo'ycha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **91,3** foiz.


Buxoro shahrida transport xizmatlari hajmi **1 275,6** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur shaharda transport xizmatlarining o'sishi **17,2** foiz darajasida qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)

Buxoro shahri	1 275,6	⚙️ +17,2
G'ijduvon	835,0	⚙️ +13,1
Jondor	432,0	⚙️ +10,1
Romitan	351,3	⚙️ +10,0
Peshku	313,7	⚙️ +0,7
Kogon shahri	301,3	⚙️ +7,8
Buxoro	298,5	⚙️ +10,8
Vobkent	290,4	⚙️ +9,3
Shofirkon	281,2	⚙️ +11,4
Qorako'l	229,3	⚙️ +9,3
Olot	216,4	⚙️ +8,4
Kogon	185,7	⚙️ +5,8
Qorovulbozor	117,6	⚙️ -4,9

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)




Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'mda)

Buxoro shahri	2 808,5
G'ijduvon	282,4
Romitan	202,8
Buxoro	171,0
Jondor	164,1
Shofirkon	148,7
Qorako'l	140,3
Peshku	131,8
Vobkent	106,1
Kogon shahri	101,9
Qorovulbozor	73,8
Olot	72,9
Kogon	1,8

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-dekabr, % da)




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-dekabrda 92,3** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **63,7** foizni yoki **2 808,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yil yanvar-dekabr** oylariga nisbatan ushbu shaharda yuqori o'sish sur'ati **105,3** foiz darajasida qayd etildi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-dekabr)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-dekabr** oylaridagi ulushi **81,7** foizni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'mda)

Buxoro shahri	1 357,7
Kogon	30,1
Qorako'l	28,7
G'ijduvon	25,3
Jondor	16,3
Buxoro	15,9
Shofirkon	13,9
Romitan	13,8
Peshku	11,4
Kogon shahri	10,7
Vobkent	9,9
Olot	7,5
Qorovulbozor	4,5



Shahar va tumanlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Buxoro shahriga to'g'ri keladi. **2024-yilning yanvar-dekabr** oylari davomida mazkur shaharda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **1 357,7** mlrd. so'mni yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **86,6** foizini tashkil etdi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsion xizmatlar egallaydi. **2024-yilning yanvar-dekabr** oylaridagi ulushi **82,4 %** ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)

Shahar va tumanlar	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi, % da
Buxoro shahri	249,5	+28,7
G'ijduvon	113,5	+13,9
Jondor	69,7	+14,8
Buxoro	67,3	+10,8
Shofirkon	67,3	+14,4
Qorako'l	62,8	+14,3
Romitan	58,4	+20,5
Vobkent	52,0	+12,6
Peshku	46,1	+17,3
Kogon	42,3	+14,9
Olot	38,9	+11,8
Kogon shahri	33,7	+11,5
Qorovulbozor	18,3	+15,6


¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

◆ O'sishi, % da


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi

(yanvar-dekabr) ¹⁾



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **32,1** foizini tashkil etadi.

Shahar va tumanlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ◆ O'sishi, % da

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-dekabr** oylaridagi ulushi **37,1** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **33,0** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **12,6** foizni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr)

Buxoro shahri	289,1	110,5
G'ijduvon	40,4	113,9
Buxoro	25,0	111,3
Kogon shahri	18,6	111,1
Qorako'l	16,1	109,5
Jondor	14,1	109,1
Peshku	13,1	113,8
Shofirkon	10,6	108,8
Vobkent	10,5	112,4
Romitan	10,2	108,2
Olot	9,6	106,3
Kogon	7,6	114,0
Qorovulbozor	2,4	107,4

■ Hajmi, mlrd. so'mda
 ◆ O'sish sur'ati, % da

Ijara xizmatlari dinamikasi (yanvar-dekabr) ¹⁾



Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'mda)



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida ijara xizmatlari hajmi **508,8** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **56,2** foizni tashkil etadi.

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar-dekabr) ¹⁾



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'ycha xizmatlar **95,2** foizni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-dekabr)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'ycha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi, % da

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-dekabr)



Shahar va tumanlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-dekabr, mlrd. so'mda)



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **220,3** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **79,9** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 65-223-79-41